

**“OMIL” VA “PEDAGOGIK OMIL” TUSHUNCHALARINING  
MOHIYATI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI**

*Qarshi davlat universiteti*

*Tayanch doktoranti*

*Ziyodov Farruh Saodilla o'g'li*

*Rezyume*

Obyektiv va subyektiv omillar ijtimoiy faoliyatning samarali bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu sababli OTMda tashkil qilinadigan pedagogik faoliyat, xususan, ingliz klassik adabiyoti vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayonida ham mazkur omillar ta'sirini to'g'ri baholashga e'tibor qaratish talab qilinadi. Tezisdagi "omil" va "pedagogik omil" tushunchalarining nazariy tavsifi yoritilib, pedagogik omillarning ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayoniga ta'siri baholangan.

**Tayanch tushunchalar:** omil, obyektiv omil, subyektiv omil, pedagogik omil, ta'lim jarayoni.

**Резюме**

Объективные и субъективные факторы оказывают влияние на эффективность социальной деятельности. В связи с этим в педагогической деятельности, организуемой в высших образовательных учреждениях, в частности в процессе формирования духовно-нравственных идеалов у студентов средствами английской классической литературы, требуется уделять особое внимание правильной оценке влияния данных факторов. В тезисе раскрывается теоретическая характеристика понятий “фактор” и “педагогический фактор”, а также оценивается влияние педагогических факторов на процесс формирования духовно-нравственных идеалов у студентов на примере английской классической литературы.

**Ключевые слова:** фактор, объективный фактор, субъективный фактор, педагогический фактор, образовательный процесс.

**Abstract**

Objective and subjective factors influence the effectiveness of social activity. Therefore, in pedagogical activities organized in higher education institutions, particularly in the process of developing students' spiritual and moral ideals through English classical literature, special attention should be paid to the proper assessment of these factors. The thesis provides a theoretical description of the concepts of "factor" and "pedagogical factor" and evaluates the impact of pedagogical factors on the development of students' spiritual and moral ideals based on the example of English classical literature.

**Key words:** factor, objective factor, subjective factor, pedagogical factor, educational process.

Har qanday jarayon muayyan omillarning unga ko'rsatadigan ta'siri asosida kechadi. Shu sababli ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil qilishda ham tadqiq qilinayotgan jarayonga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadigan samarali pedagogik omillarni aniqlash talab qilinadi.

"Omil" (a. "عامل" – sabab, ta'sirchan kuch; lot. "factor", rus. "faktor" – ishlovchi, harakatdagi) – 1) ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun sabab bo'lgan narsa; 2) sabab [6, – 122-6.]; tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan sabab ; biror-bir jarayon yoki hodisada ko'zga tashlanadigab muayyan lahza, muhim holat [3]; jarayonni amalga oshirishda uni harakatga keltiruvchi yoki bu jarayonning sharoitlariga ta'sir etuvchi kuch [4].

Bizning fikrimizcha, omil – jarayon, voqea-hodisalarning ro'y berishiga turki bo'luvchi sabab, borishini o'zgartirish hamda natijalarning shakllanishi, kafolatlanishiga ta'sir etuvchi muhim holat.

Ye.V.Shvachko va G.Ya.Grevsevaning qayd etishicha, "sotsiologiyada ham pedagogikada ham omillar shaxsning shakllanishi, rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi, sababi sifatida ko'riladi. F.F.Korolev ijtimoiy, irsiy va ta'lim omillarining shaxsning shakllanishidagi o'rni va roli aniqlaydi. Ularning fikriga ko'ra, harakatlantiruvchi kuch bo'lgan omillarsiz na tarbiya, na o'qitish, na

ta'limni tasavvur qilib bo'lmaydi" [5, – c. 452].

Mavjudligi hamda shaxs (subyekt)ga bevosita tegishliligi nuqtayi nazardan omillar ikki guruhga ajratiladi: obyektiv va subyektiv omillar.

“Obyektiv omillar” tushunchasi “hodisalar, jarayonlarning rivojlanishi yoki ular yuzasidan qarorlar qabul qilishga ta'sir qiluvchi, shaxslarning irodasi, xohish-istaklari yoki ongidan tashqarida, mustaqil bo'lgan tashqi sharoitlar, holatlar va omillar” [2] degan ma'noni anglatadi. Bu turdagi omillar biror-bir shaxsning individual ta'siri bilan o'zgarmaydi va dominant (ustun, barqaror) sanaladi.

Subyektiv omillar – tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat mazmunini ifodalovchi omillar bo'lib, o'zgarib turishi mumkin. Biroq, shunga qaramay, ular sezilarli kuchga ega bo'lishi mumkin. Bunday omillar asosan vaziyatga ko'ra qisqa vaqt ichida namoyon bo'ladi” [2].

Pedagogik jarayonning o'ziga xosligidan kelib chiqqan va ta'limiy (oldinga qo'yilgan tarbiyaviy maqsad) nuqtayi nazardan quyidagilar subyektiv omillar sanaladi: talabalarning bilim olishga bo'lgan yoki shaxsiy rivojlanishga erishishga bo'lgan ehtiyoj, qiziqish, motivatsiya hamda shaxsiy rivojlanish dasturiga egalik; o'quv-bilish faolligiga egalik; bilim va tarbiyalanganlik (rivojlanganlik) darajasi, talabalar guruhlarida sog'lom psixologik muhitning qaror topganligi, talabaning tengdoshlari hamda pedagoglar bilan o'zaro kommunikativ aloqasi va uning mazmuni, pedagogik jarayonda har bir talabaga xos individual xususiyatlar va qobiliyat darajasining hisobga olingani, talabaning oila a'zolari, tengdoshlari va pedagoglar tomonidan ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi va rag'bat bildirilishi, pedagoglarning kasbiy kompetentlik (bilimdonlik, metodik tayyorlik, pedagogik jarayonga ijodiy yondasha olish darajasi, shaxsiy ish tajribasiga, tahlil etilayotgan vaziyat bo'yicha shaxsiy ish rejasiga, shuningdek, metodikani shakllantira olish qobiliyati, o'ziga xos ish uslubi hamda ta'lim dasturiga egaligi).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “pedagogik omil” tushunchasini nazariy jihatdan yoritish imkoniyati yuzaga keladi.

“Pedagogik omil” (yoki “pedagogik omillar”) atamasi alohida tushuncha sifatida ta'lim sohasiga oid lug'atlar, ma'lumotnomalar va ensiklopediyalarda kam

ma'lumot berilgan. Bu esa u yoki bu pedagogik jarayonga ta'sir etuvchi omillarning imkoniyatlarini yetarlicha baholanmasligiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik omillar ta'lim sifati va tarbiya samaradorligini belgilab beradigan asosiy ta'sir etuvchi kuchlar, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayoniga ta'sir qilib, ta'lim oluvchining intellektual, ma'naviy-axloqiy va estetik rivojlanishi hamda bu jarayonning natijasiga o'zining jiddiy ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlar va sabablar hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik omillar shaxsni o'qitish, tarbiyalash va maqsadga muvofiq rivojlantirishga ta'sir etuvchi barcha didaktik hamda tarbiyaviy omillardir.

A.I.Karmanchikov ta'lim muassasalari (xususan, maktab), oila va ijtimoiy muhitni an'anaviy (ya'ni, barcha davrlarda ham ahamiyatli bo'lgan) omillar deya e'tirof etib, pedagogik vaziyatlarning shakllanishiga, ta'lim va tarbiya jarayoniga bevosita ta'sir qiladi [1, – c. 32], deb hisoblaydi.

Ta'lim sohasida obyektiv xarakterdagi pedagogik omillar pedagogik shart-sharoitlar deb ham yuritiladi. Darhaqiqat, ushbu omillar ta'lim/tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik shart-sharoitlar – auditoriya, o'quv jihozlari (o'quv-me'yoriy hujjatlar (o'quv rejasi, tegishli umumiy yoki mutaxassislik fanlari bo'yicha ta'lim dasturlari, DTS yoki malaka talablari, tegishli ma'lumotga egalikni baholovchi mezonlar, o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv hamda metodik qo'llanmalar, yo'riqnomalar, xrestomatiyalar, lug'at va ma'lumotnomalar, ish rejaları), ko'rsatmali qurollar, o'quv (geografik, kimyoviy, biologik, fizik qurilmalar; mashinalar (avtomobil, traktor, ekskavator va boshqalar) va qurilmalar (o'lchov apparatlari, tashxislovchi uskunalari) va texnik vositalar, axborot texnologiyalari (interfaol doska, gadjetlar, kompyuterlar) va h.k.)ning mavjudligi obyektiv xarakterdagi pedagogik omillar sifatida e'tirof qilinadi.

Subyektiv xarakterdagi pedagogik omillar sirasida esa pedagogning kasbiy kompetentligi, ta'lim jarayonida ijodiy yondashuv va muhitning qaror toptirilgani, ijtimoiy subyektlar – ota-onalar, oila a'zolari, hayotiy tajribaga ega shaxslar, milliy qahramonlarning ibratlari, talabalarning tegishli fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan

qiziqishlari, motivatsiyasi, o'quv-bilish faolligiga egaliklari, talabalar tomonidan qayd etilgan ta'lim natijalari (malaka ko'rsatkichlari) namoyon bo'ladi.

Obyektiv hamda subyektiv xarakterdagi omillarning ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirishga ko'rsatadigan ta'siri xususida so'z yuritishdan avval ilmiy-pedagogik faoliyat uchun asos sifatida Redyard Kiplingning "Qirol bo'lishni orzu qilgan kishi" ("The Man Who Would Be King"), Jek Londonning "Hayotga muhabbat" ("Love of Life"), Jek Londonning "Gulxan yoqish" ("To Build a Fire"), O'.Genrining "Magining tuhfasini" ("The Gift of the Magi"), Ernest Xemingueyning "Kilimanjarodagi qor" ("The Snows of Kilimanjaro") asarlarining tanlangani aytib o'tish joiz.

Nomlarini qayd etilgan asarlar mazmuni, yetakchi g'oyasi, ilgari surilgan muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilish chog'ida hatto syujetlar dinamikasini ta'minlashda ham obyektiv hamda subyektiv omillarning ta'siri yuqori ekaniga ishonch hosil qilindi:

**1. Obyektiv (tashqi) omillar:** ijtimoiy muhit, турмуш sharoiti, tabiat va unga xos anomal vaziyatlar, iqtisodiy holat, tarixiy-madaniy jarayon.

**2. Subyektiv (ichki) omillar:** shaxs ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, shaxsning axloqiy qiyofasi, xarakteri, e'tiqodi, ongi, dunyoqarashi, hissiyoti, irodasi, atrof-muhit (tabiatga va ijtimoiy subyektlar)ga bo'lgan munosabati.

Qayd etilgan ushbu omillarning Redyard Kiplingning "Qirol bo'lishni orzu qilgan kishi" ("The Man Who Would Be King"), Jek Londonning "Hayotga muhabbat" ("Love of Life"), Jek Londonning "Gulxan yoqish" ("To Build a Fire"), O'.Genrining "Magining tuhfasini" ("The Gift of the Magi"), Ernest Xemingueyning "Kilimanjarodagi qor" ("The Snows of Kilimanjaro") kabi asarlarida o'z ifodjasini topishi ularning tarbiyaviy ta'sirchanligini oshirish bilan birga talabalarda ma'naviy-axloqiy mas'uliyat, insoniy burch, insonparvarlik, chidamli va irodali bo'lish kabi fazilatlarni, shuningdek, tahlil hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini muvaffaqiyatli rivojlantiradi.

Demak, ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni samarali rivojlantirish jarayoniga obyektiv va subyektiv xarakterdagi pedagogik omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa mazkur jarayonda samarali ta'sirga ega pedagogik omillarni hisobga olishni taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Карманчиков А.И. Факторы формирования педагогической ситуации // Вестник ТГПУ. – Томск: 2010. - № 12 (102). – С. 32.
2. Субъективные факторы воспитания // <https://www.homework.ru/spravochnik/subektivnie-faktori-vozpitaniya>.
3. Фактор (Толковый словарь русского языка) // <https://www.vedu.ru/expdic/37192>.
4. Фактор // <https://ecolog.academic.ru/7519/Фактор>.
5. Швачко Е.В., Гревцева Г.Я. Факторный подход как педагогическая проблема образования личности // Современные проблемы науки и образования. – М.: 2016. - № 6. – С. 452.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. 2-жилд. А.Мадвалиев таҳр.остида. Таҳр.ҳайъати: Э.Бегматов ва б. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 122-б.